XALQ DEPUTATLARI YANGIQO'RG'ON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-43-192-6-90-K/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on tumanining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuni hamda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi VI-35-165-6-0-K/22-son qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01-14/20-01-32/2694-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq Deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi VI-35-165-6-0-K/22-son qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022 yil 30 dekabrdagi VI-35-165-6-0-K/22-son qaroriga muvofiq, Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani mahalliy byudjetining 2023 yil uchun daromadlari 79 356 451,0 ming so‘m, xarajatlari 272 270 031,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 192 913 580,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023 yil uchun Yangiqo‘rg‘on tuman mahalliy byudjeti daromadlari

prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023 yil uchun tuman byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun Yangiqo‘rg‘on tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2023 yil uchun Yangiqo‘rg‘on tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 566 515,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

8. 2023 yil uchun viloyatning Yangiqo‘rg‘on tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 898 046,0 ming so‘mga belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023 yilda Xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023 yilda quyidagi soliq turlari:

a) Yangiqo‘rg‘on tuman mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig‘i;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha, tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishincha 2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra Namangan viloyati aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda Yangiqo‘rg‘on tuman byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Ko‘paysinov), Moliya bo‘limi (B.Boymirzaev), Davlat soliq inspeksiyasi (N.Alimov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning

to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Yangiqo‘rg‘on tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Alimov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

13. Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Ko‘paysinov), Moliya bo‘limi (B.Boymirzaev):

Yangiqo‘rg‘on tuman byudjeti tasdiqlangan xarajatlarining (zaxira jamg‘armasi mablag‘larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Yangiqo‘rg‘on tumani xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini

ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

14. Mazkur qaror “Yangiqo‘rg‘on hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

15. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va Yangiqo‘rg‘on tumani hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-43-192-6-90-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023 йил учун Янгиқўрғон тумани маҳаллий бюджети даромадлари прогнози

минг сўмда

Даромад турлари		**Янгиқўрғон тумани**
1	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	6 113 367
2	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	12 934 809
3	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	1 033 504
4	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	1 265 047
5	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	1 210 745
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 244 922
7	Юридик шахслар ер солиғи	13 628 032
8	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	0
9	Корхоналар айланмасидан солиқ	8 160 556
10	Жарималар	0
11	Йиғимлар	4 723 387
12	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	241 994
13	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	27 800 088
ЖАМИ		**79 356 451**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-43-192-6-90-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023 йил учун Наманган вилоятининг вилоят бюджетидан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдори

минг сўмда

Ҳудуд номи	**Янгиқўрғон тумани**
Янгиқўрғон тумани	192 913 580

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-43-192-6-90-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023 йил учун Янгиқўрғон тумани бюджетидан ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган маблағларнинг чекланган миқдори

минг сўмда

Т/р	Кўрсаткичлар	Янгиқўрғон тумани
	Янгиқўрғон тумани бўйича жами	**272 270 031,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	256 651 515,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	0,0
	захира жамғармаси	2 566 515,0
	Ташаббусли бюджет жамгармаси	13 052 001,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
1	**Янгиқўрғон тумани халқ таълими бўлими**	**11 949 366,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	11 949 366,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2	**Янгиқўрғон тумани мактабгача таълим бўлими**	**16 605 632,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	16 605 632,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3	**Янгиқўрғон тумани тиббиёт бирлашмаси**	**85 666 585,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	85 666 585,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4	**Янгиқўрғон тумани маданият бўлими**	**5 047 095,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	5 047 095,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

5	**Янгиқўрғон тумани ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими**	**1 335 763,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 335 763,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6	**Янгиқўрғон спортни ривожлантириш бўлими**	**8 047 291,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	8 047 291,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
7	**Янгиқўрғон тумани бандлик ва меҳнат муносабатлари бўлими**	**760 677,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	760 677,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
8	**Янгиқўрғон тумани молия бўлими**	**1 387 748,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 387 748,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
9	**Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Янгиқўрғон туманидаги муассасалар**	**419 105,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	419 105,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
10	**Халқ депутатлари Янгиқўрғон тумани Кенгаши**	**203 182,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	203 182,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
11	**Янгиқўрғон тумани ҳокимлиги**	**105 248 734,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	89 849 643,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	захира жамғармаси	2 566 515,0
	Ташаббусли бюджет жамгармаси	13 052 001,0

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
12	**Янгиқўрғон тумани маҳалла ва нуронийлар қуллаб-қувватлаш бўлими**	**5 503 887,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	5 503 887,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
13	**Янгиқўрғон тумани Ёшлари ишлари агентлиги бўлими**	**6 716 319,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	6 716 319,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
14	**Янгиқўрғон тумани оила ва хотин-қизлар бўлими**	**4 384 891,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 384 891,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
15	**Янгиқўрғон тумани ободонлаштириш бўлими**	**13 969 673,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	13 969 673,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
16	**Янгиқўрғон туман сув хўжалиги бўлими**	**2 637 221,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 637 221,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
17	**Янгиқўрғон туман қишлоқ хўжалиги бўлими**	**1 103 911,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 103 911,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
18	**Янгиқўрғон бошқа муассасалар**	**1 063 526,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 063 526,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-43-192-6-90-K/22-son qaroriga
4-ilova

2023 йил учун Наманган вилоятининг туман ва (шахарлар) бюджетлари ўртасида ажратмалар нормативлари белгиланадиган умумдавлат солиқлари ва бошқа мажбурий тўловлар

№	Ҳудудлар номи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ		Юридик жисмсоний шахслар ер солиғи		Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи		Корхоналар айланмасидан солиқ		Давлат божи		Жарималар	
		Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига
	Янгиқўрғон тумани	100%	0%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%

№	Ҳудудлар номи	Йиғимлар		Давлат унитар корхоналари дивиденд тушумлари		Давлат мулки бўйича ижара тўловлари		Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи		Давлат мулкини хусусийлаштиришдан тушумлар		Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	
		Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига

	Янгиқўрғон тумани	100%	0%	0%	100%	100%	0%	55%	45%	0%	100%	0%	100%

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-43-192-6-90-K/22-son qaroriga
5-ilova

2023 йил учун Наманган вилоятининг туман ва (шахарлар) бюджетлари ўртасида ажратмалар нормативлари белгиланадиган умумдавлат солиқлари ва бошқа мажбурий тўловлар

№	Ҳудудлар номи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ		Юридик жисмсоний шахслар ер солиғи		Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи		Корхоналар айланмасидан солиқ		Давлат божи		Жарималар	
		Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига
	Янгиқўрғон тумани	100%	0%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%

№	Ҳудудлар номи	Йиғимлар		Давлат унитар корхоналари дивиденд тушумлари		Давлат мулки бўйича ижара тўловлари		Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи		Давлат мулкини хусусийлаштиришдан тушумлар		Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	
		Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига	Шаҳар ва туманлар бюджетига	Вилоят бюджетига

	Янгиқўрғон тумани	100%	0%	0%	100%	100%	0%	55%	45%	0%	100%	0%	100%